


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 44 766,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	38 591,9	44 766,0	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	37 753,5	43 872,3	108,7
mahsulotlarga sof soliqlar	838,4	893,7	113,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	37 753,5	43 872,3	108,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 086,4	12 336,2	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 496,2	13 244,9	110,7
sanoat	7 585,0	8 690,9	108,2
qurilish	3 911,2	4 554,0	115,5
xizmatlar	15 170,9	18 291,2	110,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 822,3	7 171,9	116,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 295,7	2 945,0	118,2
boshqa xizmat tarmoqlari	7 052,9	8 174,3	103,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 21 194,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,3 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,8	98,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,2	2,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,4	28,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,5	30,2
sanoat	20,1	19,8
qurilish	10,4	10,4
xizmatlar	40,1	41,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,4	16,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,1	6,7
boshqa xizmat tarmoqlari	18,6	18,7

2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,1 % ni, sanoat tarmog'i 19,8 % ni, qurilish 10,4 % ni va xizmatlar sohasi 41,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,5 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi .

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,1 %), sanoatda – 108,2 % (19,8 %), qurilishda – 115,5 % (10,4 %), xizmatlar sohasida – 110,6 % ni (41,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 116,4 % (16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,2 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (18,7 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



6,4 %

YAHM

8,8 %



3,8 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,2 %



7,3 %

Sanoat

8,2 %



6,0 %

Qurilish

15,5 %



7,9 %


Xizmatlar

10,6 %



2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 109,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 106,8 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 30 959,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-iyun oylarida – 26 922,4 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 70,6 % ni (2025 - yilning yanvar-iyun oylarida – 71,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

26 922,4

71,3 %

2026- yil

30 959,5

70,6 %

